PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ONA TILI DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Fayzullayeva Dinara Ilhamovna
O'roqova Asilabonu Abdunazar qizi
CHDPU O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Shahnoza Muxtarova**
oroqovaasilabonu34@gmail.com
dinarafayzullayeva06@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20278909

ANNOTATSIYA: Hozirgi globallashuv sharoitda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda har tomonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini chuqur egallagan shaxsni tarbiyalab yetishtirish, uning ilmiy dunyo qarashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ona tili darslarini samaradorligini oshirish, shuningdek, ona tili darslarini o'qitish jarayonida integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash masalalari yoritib berilgan.
Kalit so'zlar: integratsiya, fan, ona tili darslari, mexanizm, samaradorlik.

ANNOTATION: In the current context of globalization, it is important to develop the country's economy, to bring up a person with a high level of spirituality, modern management mechanisms, to form his scientific worldview, to ensure its integration into the world community. This article discusses the issues of increasing the effectiveness of mother tongue lessons, as well as ensuring interdisciplinary links in integrated lessons in the process of teaching mother tongue lessons.
Keywords: integration, science, mother tongue lessons, mechanism, efficiency.

Fanlararo integratsiya ta'lim jarayonida o'quv fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali bilimlarni yaxlit tizim sifatida o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ona tili darslari bu jarayonda alohida o'rin egallaydi, chunki til barcha fanlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Har qanday fan bo'yicha bilimlar aynan til orqali o'zlashtiriladi, ifodalanadi va mustahkamlanadi. Shu sababli ona tili darslarida fanlararo integratsiyani to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Fanlararo integratsiyaning asosiy mohiyati — o'quvchilarda alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat. Masalan, o'quvchi tarix darsida olgan bilimlarini ona tili darsida matn tahlili orqali mustahkamlaydi yoki geografiyaga oid tushunchalarni izohli matn yozish orqali yanada chuqurroq anglaydi. Bu esa bilimlarning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi va ularni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Ona tili darslarida fanlararo integratsiya o'quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Turli fanlarga oid matnlar bilan ishlash o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi, ilmiy terminlarni to'g'ri qo'llashga o'rgatadi va nutqning aniqligi hamda mantiqiyligini oshiradi. Masalan, biologiyaga oid matnlar orqali o'quvchilar yangi terminlarni o'rganib, ularni gapda to'g'ri qo'llashni mashq qiladilar. Natijada ularning ilmiy nutqi shakllanadi. Fanlararo integratsiya o'quvchilarning tafakkur faoliyatini ham rivojlantiradi. Integratsiyalashgan darslar davomida o'quvchilar tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalarni bajaradilar. Bu esa ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, biror matnni o'rganishda o'quvchilardan undagi ma'lumotlarni boshqa fanlar bilan bog'lash talab etilsa, ular chuqurroq fikrlashga majbur bo'ladilar. Ona tili darslarida integratsiyani amalga oshirishning samarali yo'llaridan biri — turli fanlarga oid matnlardan

foydalanishdir. Bunday matnlar o‘quvchilarga nafaqat til qoidalarini o‘rganish, balki boshqa fanlarga oid bilimlarni ham egallash imkonini beradi. Masalan:

- tarixiy matnlar orqali o‘tmish voqealarini o‘rganish;
- geografik matnlar orqali tabiat va hududlar haqida tasavvur hosil qilish;
- ilmiy-ommabop matnlar orqali zamonaviy fan yutuqlari bilan tanishish.

Shuningdek, fanlararo integratsiya topshiriqlar tizimi orqali ham amalga oshiriladi. O‘quvchilarga beriladigan savollar va mashqlar boshqa fanlarga oid bilimlarni jalb qilgan holda tuzilsa, dars yanada samarali bo‘ladi. Masalan, matn asosida savollarga javob berishda o‘quvchi faqat grammatik bilim emas, balki umumiy bilimlarini ham qo‘llaydi. Integratsiya mexanizmi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

Mazmuniy integratsiya — dars materialining boshqa fanlar bilan bog‘lanishi;

Faoliyat integratsiyasi — o‘quvchilarning turli faoliyat turlarini birlashtirish (o‘qish, yozish, tahlil qilish);

Metodik integratsiya — o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirish;

Natijaviy integratsiya — olingan bilimlarni kompleks qo‘llash.

Fanlararo integratsiyaning samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq. Avvalo, o‘qituvchining kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi fanlararo bog‘lanishni chuqur tushunishi va uni dars jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olishi zarur. Bundan tashqari, darsning puxta rejalashtirilgan bo‘lishi, o‘quv materialining mosligi va o‘quvchilarning faolligi ham katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar fanlararo integratsiyani amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, interfaol metodlar — “aqliy hujum”, “klaster”, “bahs-munozara”, “loyiha metodi” kabi usullar orqali o‘quvchilarni faol jalb etish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va dars samaradorligini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham integratsiyani kuchaytiradi. Multimedia vositalari, elektron darsliklar, taqdimotlar va videomateriallar yordamida turli fanlarga oid ma’lumotlarni bir darsda uyg‘unlashtirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Fanlararo integratsiya o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchilarga beriladigan ijodiy topshiriqlar — insho yozish, hikoya tuzish, loyiha tayyorlash kabi faoliyatlar orqali ular o‘z bilimlarini erkin ifoda etadilar. Bu jarayonda ular turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtiradilar. Bundan tashqari, integratsiya o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Real hayotda muammolarni hal qilish uchun turli fanlardan olingan bilimlar kerak bo‘ladi. Integratsiyalashgan ta’lim esa o‘quvchilarni shunday vaziyatlarga tayyorlaydi. Ular bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Ona tili darslarida fanlararo integratsiyani qo‘llash natijasida o‘quvchilarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

bilimlarning mustahkamligi oshadi;

- nutq rivojlanadi;
- mantiqiy fikrlash kuchayadi;
- mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllanadi;
- o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Shu bilan birga, ayrim qiyinchiliklar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qituvchining yetarli tajribaga ega emasligi, dars vaqtining cheklanganligi yoki mos materiallarning yetishmasligi integratsiyani to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Biroq bu muammolarni to‘g‘ri yondashuv va zamonaviy metodlardan foydalanish orqali bartaraf etish mumkin. Bilamizki, uzluksiz ta'lim tizimida ona tilini o'qitish asosiy o'rin egallaydi. XXI asr - axborot texnologiyalari asri. Ona tili darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi. Shu jihatdan olib qaraganimizda

ham ta'lim tizimida ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rgatish darsning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ona tili darslari boshqa o'quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u ta'lim bosqichlarida o'rganiladigan xilma-xil o'quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, texnologiya, geografiya, xorijiy tillar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganilsa, o'z samarasini beradi. Chunki ta'lim tizimida fanlararo aloqadorlik - integratsiya darslarini tashkil etish o'quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi.Birinchi navbatda, ona tili adabiyot fani bilan bog'lab o'rgatiladi. Ona tili va adabiyot darslarini bir o'qituvchi olib borishi ularni o'zaro bog'lab aloqada o'rgatishga katta imkoniyat yaratadi. Adabiyot so'z san'ati bo'lganligi tufayli, ona tilini asosli ravishda anglamasdan turib, o'quvchilar oldida adabiyotning go' zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini namoyish qilish mumkin emas. Yuqori sinfda badiiy asarning tili o'rganilayotganda stilistik tahlil mashg'ulotlari o'tkaziladi. Stilistik tahlilda asarning g'oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari aniqlanadi, muallifning so'z tanlash, gap tuzish mahorati ko'zdan kechiriladi. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romani bo'yicha mustaqil mashg'ulot olib borilar ekan, o'quvchilarda yozuvchining so'z tanlash va so'zlarni o'zaro bog'lash usullari, shuningdek tinish belgilarining ishlatilishi aniqlanadi. Ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan ona tilida biron bir nazariy ma'lumot o'rganilayotgan bir paytda o'quvc hilarga aynan shu damda adabiyotdan o'tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, ruboiy, g'azallardagi so'zlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o'rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.Davlat ta'lim standartlarida o'quv fanlari orasidagi aloqadorlik, ona tili fanining boshqa o'quv fanlarini o'rganishga ta'siri qayd etilib, "Ona tili o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishda aniq fanlar yo'nalishdagi fanlarni o'rganishga ijobiy ta'sir" ko'rsatishi uqtirilgan. Maktabda ona tili va matematika darslari o'rtasidagi predmetlararo aloqani o'rnatish uchun potensial imkoniyatlar mavjud. Jumladan, ona tili darslarida matematik mavzulardagi mashqlarga o'rin berilishi, matematika darslarida o'quvchilarning til madaniyatini oshirishga doir ishlar amalga oshirilishi fanlararo uzviylikni ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, matematika darslarida "Agar....bo'lsa, u xolda...." shaklidagi jumlalarni quyi sinflardayoq qo'llay boshlanadi va uni mantiqiy hosil bo'lishlik simvoli bilan belgilab ko'rsatiladi. Ona tili darslarida ham qo'shma gap mavzusida gapning ko'rinishi yuqoridagi shaklda bo'lishi uqtirib o'tiladi. Shu mavzuni o'qitishda "Agar uchburchakda tomonlaridan birining kvadrati uning qolgan ikki tomoni kvadratlarining yig'indisiga teng bo'lsa, u holda uchubrchak to'g'ri burchakli bo'ladi" yoki "Agar burchaklar vertikal bo'lsa, u holda ular teng bo'ladi" shaklidagi matematik jumlalarni tahlil qilish mumkin. Bu esa ona tili o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ona tili fanini texnologiya fani bilan ham bog'lab o'qitish mumkin. Ona tili darslarida ayrim mavzularni o'rgatish jarayonda kasb-hunarga oid misollarni qo'llash orqali ham ona tili va texnologiya fanlarini bir-biriga bog'lash mumkin. Jumladan, turdosh otlar mavzusi o'rganilayotganda duradgorlik, tikuvchilik, pazandachilik va boshqa kasblarga doir atama va so'zlardan keng foydalanish, ularni o'quvchilarning o'zlariga topshirish, uydan yozib kelish uchun vazifa qilib berish mumkin. Bunday ishlar orqali o'quvchilar har xil kasb-hunarlar bilan tanishadilar, ulardan shu kasb-hunarga ma'lum darajada qiziqish va ishtiyoq uyg'onadi. Bundan tashqari ona tili fanining tarix, geografiya, botanika, fizika fanlari bilan ham bog'lab o'rgatish ta'lim tizimida fanlararo bog'lanishning samarali foyda beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. ”O’zbek tilini o’qitish metodikasi” Yuldasheva D, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2021.
2. “Ona tilini o’qitish metodikasi” A.G’ulomov, M. Qodirov, Toshkent-2012.
3. “Ta’limda interfaol texnologiyalar” R. H.Djurayev, Toshkent-2010